
«YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON AZIZ!» SHIORI OSTIDA BAYRAM TADBIRI BO‘LIB O‘TDI.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Toshloq tuman bo'linmasi tomonidan tumandagi Honariq MFY hududidagi Madaniyat markazida "Yangi O'zbekistonda el aziz, inson aziz" shiori ostida keng nishonlanayotgan O'zbekiston Respublikasi Davlat Mustaqilligining 31 yilligiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy, madaniy targ'ibot tadbiri o'tkazildi.

Tadbirda tuman hokimligi, ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchilar, umumumiy o'rta ta'lim maktablaridagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosarlari, mahallalardagi yoshlar yetakchilari hamda mahalla aholisi ishtirok etdi. Ijodkor o'quvchilar tomonidan tayyorlangan kuy-qo'shiq, raqs va she'rlar tadbirga ko'tarinki ruh bag'ishladi hamda ishtirokchilariga birdek manzur bo'ldi.

Tadbir doirasida "Vatan uchun yashaylik" mavzusida insholar tanlovi, "Ranglar jilosida ona diyor" mavzusida rasmlar tanlovi hamda "Eng ulug', eng aziz" mavzusi bo'yicha maqolalar tanlovlari o'tkazildi. Tadbir yakunida g'oliblarga tashkilotchilarning diplom hamda esdalik sovg'alari topshirildi.

2022-08-26 19:34:32